
BOZORLARDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SIFATI NAZORAT QILINMOQDA

Bozorlarda oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta'minlashga doir normalar va qoidalar bajarilishi yuzasidan mutasaddi idoralar hamkorligida qo'shma reydlar o'tkazilib kelinmoqda. Hususan, bugun Toshloq tumanida joylashgan "Fayz baraka" MCHJga tegishli "Dehqon bozor"da uy sharoitida tayyorlangan, sifat sertifikatiga ega bo'lmagan, tez aynuvchi oziq-ovqat mahsulotlarini va nostandart, qo'lbola elektr hamda gaz isitish moslamalarini sotilishini oldini olish bo'yicha tadbirkorlar bilan tushuntirish profilaktika ishlari olib borildi. Ushbu tadbirdan ko'zlangan maqsad, aholini sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlaridan hamda tabiiy, is gazlaridan zaharlanishlarni oldini olish, shuningdek kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazishdan iborat.

2022-11-10 20:35:45